

**“DEVON-U LUG‘OTIT – TURK” (TURKIY SO‘ZLAR DEVONI)
ASARIDAGI MORFEMIK BIRLIKLARNING TURKIY TILLAR
BO‘YICHA QIYOSIY VA FARQLI XUSUSIYATLARI TAHLILI**

Mamarasulova Iroda

O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu tadqiqot ishimizda qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit-turk” asaridagi morfemik birliklarning turkiy tillar bo‘yicha qiyosiy tahlili keltirilgan bo‘lib, turkiy tillardagi qo‘shimchalarning leksik ma‘nosi, vazifasi bir xil ekanligi, shakl jihatidan esa bir-biridan farqlanishi haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “Devon-u lug‘otit-turk” asari, turkiy tillar, morfemik birliklar, -lar, -ngiz, -chi, -di, -dug‘, -sin, -sun kabilar.

Kirish

Bizga ma‘lumki, affiksatsiya tilimizda grammatik ma‘no ifodalashning eng keng tarqalgan turi, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma‘no ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma‘noning xarakteriga va o‘z mohiyatiga ko‘ra affikslar ikkiga bo‘linadi: a) so‘z yasovchi affikslar; b) shakl yasovchi affikslar. Biz bu morfemik birliklardan so‘zlarning yasalişida, so‘zlarga qo‘shimcha va yangi leksik ma‘no berishda foydalanamiz. Ular o‘zlarining farqli va o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra turli tillar o‘rtasida qo‘llanilish jarayonida bir-biridan farq qiladi.

Asosiy qism: Qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariy “Devon-u lug‘otit-turk” - o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishiga asos bo‘lgan, lug‘atida turkiy tillarga xos morfemik birliklarni qiyoslaydi va ular o‘rtasidagi farqli va o‘xshash xususiyatlarni belgilaydi. Xususan, buyruq maylidagi fe‘lda ko‘plikning ifodalanishi haqida fikr yuritir ekan, shunday yozadi: “Buyruq oxiriga **-g‘il, -qil, -gil** qo‘shish tinglovchi birlikda bo‘lgandagina mumkin. Tinglovchi ikkita yoki ortiq bo‘lsa, bu qo‘shimchalarni qo‘shib bo‘lmaydi. Ikkitalik va ko‘plik farqsiz bir xildir. Birlik uchun **bar**, ikkitalik uchun **baringlar**, ko‘plik uchun **baringlar** deydlar. Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo‘lsa (yolg‘iz bo‘lsa ham), hurmat yuzasidan ko‘plik shakli qo‘llanadi: **baring** deyiladi. Aslida buning ma‘nosi

baringlar demakdir. O'g'uz va qipchoq lahjasida **birlikda bar, ko'plikda baring** deyidilar. Ular ko'plik qo'shimchasi **-lar** ni tushirib qoldiradilar, **-lar o'rniga -ngiz** qo'llaydilar". O'zbek tilida esa buyruq maylining birligi **bor**, ko'pligi **boring, boringsizlar** shaklida ifodalanadi¹. Shu jihatdan olib qaraganda, til taraqqiyotiga ko'z tashlansa, qadimgi turkiy til nuqtayi nazaridan morfologik va morfonologik struktura, so'zlarning yasalihi, asos va qo'shimchalar, ularning o'ziga xos xususiyatlar, turlari, morfologik struktura borasidagi turkolog olimlarning ilmiy – nazariy qarashlari, so'zlarni turkumlarga ajratish masalalari ancha uzoq tarixga borib taqaladi². Shuni inobatga olgan holda, ushbu grammatik vositalar turli semantik ma'nolarni shakllantirish uchun ham asos bo'ladi.

Turklar hurmatli kishilarga nisbatan, garchi u kishi yolg'iz bo'lsa ham **bardiniz** deyidilar. Holbuki, **-iniz** aslida ko'plikni bildiruvchi qo'shimchadir. O'g'uzlar buni faqat ko'plikda qo'llaydilar. **Bardiniz - hammangiz bordingiz** demakdir. O'zbek tilida hurmatni ifodalash uchun shaxs-son qo'shimchasi **bordingiz, bordilaringiz** shaklida qo'llaniladi. ("Devon", 2- tom, 52-bet)

Foil (ishlovchini bildiradigan sifatdosh) formasi har xil maqsadlar uchun besh xilda qo'llanadi: fe'llardan yasaluvchi so'z turlari hamma qabilalarda bir xil bo'lsa ham, ish-harakatning bajaruvchisini bildiruvchi sifatdosh formasi qabilalar tilida har xildir. Bunda har xil tarzda farqli qo'llovchi birinchi forma ishlovchi mazmunini anglatuvchi foil formasidir: **bardachi-boruvchi, turdachi-turuvchi** kabi.

Bunda sifatdosh o'tgan zamon fe'lidan yasalgandir. O'tgan zamon fe'l shaklini yasovchi **-di** qo'shimchasi **-d** bilan **-i** orasiga **-ch** orttirilib yasaladi. Bu o'g'uz, qipchoq, yag'mo, ug'roq, suvorin, bajanak to ruslargacha bo'lganlar tilidadir. Bu qoidaga mosdir. Chunki bardi fe'lida **-d** o'tgan zamon fe'lining qo'shimchasidir. **-i** o'zgalik belgisidir. Tinglovchi, so'zlovchilarda **-i** ning tushishi shuni ko'rsatadi: **bardin, bardim** deyilgandagi kabi. Holbuki, **-d** o'tgan zamon belgisi bo'lgani uchun har birida ham saqlanadi. Ma'lum bo'ldiki, **bardachi** shaklida **-ch** bilan **-i** foil ishlovchilik qo'shimchasidir. Bu **-i** o'tgan zamondan xabar beruvchi **-i** emasdir, demak bu **-i** nisbat va sifatni bildiruvchidir: **etchi-qassob, etmakchi-novvoy** kabi.

Ismlarga **-chi** qo'shib, hunar egasi ismlari yasashda hamma qabilalar ittifoqdirlar, bunda farq qilmaydilar: masalan, **tarig'-don, tarig'chi-don ekuvchi, etikchi-etik tikuvchi** kabi bo'lib, ularda ism yasovchi qo'shimcha bu

¹ Mahmud Qoshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk". Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. 2- tom.- Toshkent, 1963.-B. 51-54-bet

² Erbutayeva Sh.U. Til,Ta'lim,Tarjima. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8209386>

ya'ni **-chi** ekani aniqdir. **Bardari-boruvchi, turdachi-turuvchi** so'zlari ham fe'ldan yasalgan sifatdosh formasidir. Yuqoridagilar ismlardan yasalgan sifatdoshlardir. Ish-harakatning bajaruvchisini bildiruvchi sifatdosh shakli o'zbek tilida **ko'ruvchi, boruvchi** kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, **-uvchi, -vchi** qo'shimchalari orqali shaxs otlari ham yasaladi: masalan, **yozuvchi, tikuvchi** kabi. O'zbek tilida **-chi** qo'shimchasi turli xil vazifalarni bajaradi³.

Bo'lishsiz fe'l qo'shimchasi hamma tillarda bir xilda bo'lib, buyruq shakli oxiriga **-ma** qo'shish bilan yasaladi: Masalan, **barma-borma, barmanglar-bormanglar** kabi. Ul **barmasin- u bormasin** (bo'lishsiz fe'lining uchinchi shaxs birligi), **barsun-borsin, kelsun-kelsin** (buyruq fe'lining uchinchi shaxs birligi), ikkinchi shaxs buyruq shakliga hamma qabilalarda bir xil **-sun** qo'shish bilan yasaladi. O'g'uzlar kelasi zamon fe'lidagi o'zak tarkibida bo'lgan **-r** harfini saqlab, kelasi zamon fe'li qo'shimchasi bo'lgan bir **-r** harfini tushiradilar: Masalan, **men baran -men boraman, men turan- men turaman** kabi. O'zbek tilida bo'lishsiz fe'l qo'shimchasi birlikda **borma**, ko'plikda **bormang, bormangsizlar** kabi ko'rinishlarda ifodalanadi⁴.

Yag'mo, chigil, arg'u, uyg'ur, to Chingacha bo'lgan hamma qabilalar o'tgan zamon fe'lini - **di** qo'shib yasashda ittifoqdirlar. Chunonchi, **bardi** kabidir. Chunki bu fe'l bor buyrug'iga **-di** qo'shib yasalgandir. O'g'uzlar va qipchoqlarning ba'zilar - suvorinlar - **g'** li so'zlarda va umuman qattiq so'zlarda **-i** o'rniga **-ug'** almashtirib, **-di** emas **-dug'**, - **g** li va umuman ingichka talaffuzli so'zlarda **-di** o'rniga - **duk** qo'shadilar. Bularda birlik va ko'plik ham bir shaklda farqsizdir. Chunonchi, ular **-g'** li so'zlarda : **ko'rdug'** yoki **ko'rdi** tarzida qo'llaydilar. **Men yoy ko'rdim** o'rnida ham farqsiz, bir xilda **men ja ko'rdug'** formasini qo'llaydilar: **biz ja ko'rdug' - bizlar yoy ko'rdik** kabi. O'zbek tilida esa o'tgan zamon fe'li 1-shaxs birlikda **bordim**, 1-shaxs ko'plikda **bordik** shaklida bo'ladi. ("Devon", 2- tom, 64, 65-betlar).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, turkiy tillardagi qo'llaniladigan qo'shimchalar leksik-semantik, sintaktik, grammatik jihatdan bir xil bo'lsa-da, fonetik va morfologik jihatdan bir-biridan farq qiladi.

³ Mahmud Qoshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk". Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. 2- tom.- Toshkent, 1963.-B. 64-bet

⁴ Mahmud Qoshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk". Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. 2- tom.- Toshkent, 1963.-B. 64-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmud Qoshg'ariy "Devon-u lug'otit-turk". Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. 2- tom.- Toshkent, 1963. T.2.-1963. 50-65-betlar.
2. Sayfullayeva R va boshq . Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.: Fan va texnologiyalar. 2009. -B.158.
3. Omonov U. Ona tili (Morfologiya) o'quv qo'llanmasi. -Buxoro.: 2021. -B. 138-160 betlar.